



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODEL	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxanov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	



BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNINI

Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, magistranti

E-mail: mutal1001@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank sektorining investitsiya oqimlarini shakllantirish, taqsimlash va samarali boshqarishdagi strategik o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida banklarning moliyaviy vositachilik funksiyasi, investitsiya resurslarini real sektor tarmoqlariga yo'naltirish mexanizmlari hamda investitsiya faolligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tijorat banklarining investitsiya siyosati va risklarni boshqarish tizimining iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi roli asoslab beriladi. Maqola natijalari bank sektorining investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bank sektori, investitsiya oqimlari, moliyaviy vositachilik, investitsiya siyosati, iqtisodiy barqarorlik, kapital bozori.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the strategic role of the banking sector in the formation, distribution, and effective management of investment flows. The study highlights the financial intermediation function of banks, the mechanisms for channeling investment resources into the real sector, and their importance in enhancing investment activity. In addition, the impact of commercial banks' investment policy and risk management systems on strengthening economic stability is substantiated. The findings contribute to improving the effectiveness of the banking sector's participation in investment processes.

Key words: banking sector, investment flows, financial intermediation, investment policy, economic stability, capital market.

Аннотация. В статье научно анализируется стратегическая роль банковского сектора в формировании, распределении и эффективном управлении инвестиционными потоками. В рамках исследования раскрываются функции финансового посредничества банков, механизмы направления инвестиционных ресурсов в отрасли реального сектора, а также их значение в повышении инвестиционной активности. Кроме того, обосновано влияние инвестиционной политики коммерческих банков и системы управления рисками на укрепление экономической стабильности. Результаты исследования направлены на повышение эффективности участия банковского сектора в инвестиционных процессах.

Ключевые слова: банковский сектор, инвестиционные потоки, финансовое посредничество, инвестиционная политика, экономическая стабильность, рынок капитала.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya oqimlarini samarali boshqarish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yetakchi o'rin tutadi. Ushbu jarayonda bank sektori moliyaviy resurslarni jamlash, ularni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish va investitsiya muhitini faollashtirish orqali strategik ahamiyat kasb etadi.

Banklar investitsiya oqimlarini boshqarishda moliyaviy vositachi sifatida faoliyat yuritib, jamg'armalarni kapitalga aylantirish, kredit va investitsiya instrumentlari orqali real sektorni moliyalashtirish vazifasini bajaradi. Ayniqsa, tijorat banklarining investitsiya siyosati, risklarni baholash va boshqarish mexanizmlari hamda kredit-investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish jarayonlari investitsiya oqimlarining samaradorligini belgilovchi muhim omillar sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimini isloh qilish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlar bank sektorining investitsiya jarayonlaridagi rolini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois bank sektorining investitsiya oqimlarini



boshqarishdagi o'zni va uning iqtisodiy o'sish hamda barqaror rivojlanishga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqolada bank sektorining investitsiya oqimlarini shakllantirish va boshqarishdagi funksional mexanizmlari, ularning iqtisodiyot rivojiga ta'siri hamda investitsiya faolligini oshirish imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank sektorining investitsiya oqimlarini boshqarishdagi o'zni masalasi iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida ko'plab mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda mazkur muammo, asosan, banklarning moliyaviy vositachilik funksiyasi, investitsiya resurslarini taqsimlash mexanizmlari va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri nuqtayi nazaridan yoritiladi.

Klassik iqtisodiy nazariyada banklar jamg'armalarni investitsiyalarga aylantiruvchi asosiy institut sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv tarafdorlari bank tizimi rivojlangan mamlakatlarda kapital oqimlarining samarali harakati va investitsiya faolligining yuqori darajada ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, banklar kreditlash va investitsiyalash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtiradi hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda bank sektorining investitsiya oqimlarini boshqarishdagi roli yanada keng talqin qilinadi. Xususan, ayrim olimlar banklarning investitsiya siyosatini makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy xavfsizlik va risklarni boshqarish tizimi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladilar. Ularning ilmiy ishlanmalarida kredit-investitsiya portfelining diversifikatsiyasi, foiz stavkalari siyosati hamda bank kapitallashuv darajasining investitsiya oqimlariga ta'siri asoslab berilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga bag'ishlangan tadqiqotlarda bank sektorining investitsiya jarayonlaridagi o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu adabiyotlarda banklarning real sektorni moliyalashtirishdagi faolligi, uzoq muddatli investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari va institutsional muhitning ta'siri atroficha tahlil qilinadi. Tadqiqotchilar bank tizimining yetarli darajada rivojlanganligi investitsiya oqimlarining faollashuviga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuviga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda O'zbekiston bank tizimining investitsiya jarayonlaridagi roli, bank-moliya sohasini isloh qilishning investitsiya muhitiga ta'siri hamda tijorat banklarining kredit-investitsiya faoliyatini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Ushbu ishlarda bank sektorining iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyalashtirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan bo'lib, investitsiya oqimlarini boshqarish mexanizmlarini yanada tizimli rivojlantirish zarurligi ham asoslab beriladi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank sektorining investitsiya oqimlarini boshqarishdagi strategik o'zni, ayniqsa, raqamli transformatsiya, moliyaviy innovatsiyalar va global moliya bozorlaridagi o'zgarishlar sharoitida yanada ortib bormoqda. Bu holat mazkur mavzuning ilmiy jihatdan dolzarbligini kuchaytiradi va qo'shimcha tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Ilmiy manbalarda bank sektorining investitsiya oqimlarini boshqarishdagi roli iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. J. M. Keynes investitsiya jarayonlarining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini asoslab, moliyaviy institutlarning rolini muhim deb baholagan. J. Schumpeter esa banklarni innovatsion rivojlanishning moliyaviy tayanchi sifatida ko'rib, kredit mexanizmlarining iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. F. Mishkin, P. Rose va S. Hudgins tadqiqotlarida banklarning moliyaviy vositachilik funksiyasi, resurslarni samarali taqsimlash hamda risklarni boshqarish masalalari keng yoritilgan. R. Levine hamda G. Gorton va A. Winton ishlarida moliyaviy vositachilikning investitsiya faolligini oshirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslangan. Jahon banki hisobotlarida esa bank sektorining barqaror rivojlanish va kapital bozorlarini chuqurlashtirishdagi strategik ahamiyati alohida qayd etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bank sektorining investitsiya oqimlarini boshqarishdagi strategik o'rnini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks va tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda bank-moliya sohasiga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida mantiqiy va taqqoshlama tahlil amalga oshirildi.

Shuningdek, bank sektorining investitsiya faolligini baholashda iqtisodiy-statistik usullar, jumladan, dinamik va strukturaviy tahlil usullari qo'llanildi. Tijorat banklarining kredit-investitsiya portfeli, investitsiya yo'nalishlari hamda ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishda abstraksiyalash, induksiya hamda deduksiya metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuv bank sektorining investitsiya oqimlarini boshqarishdagi o'rnini kompleks tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida bank sektorining investitsiya oqimlarini boshqarishdagi faoliyati makroiqtisodiy va institutsional omillar bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, banklar tomonidan jalb etilayotgan moliyaviy resurslar hajmi hamda ularning investitsiyalarga yo'naltirilish darajasi iqtisodiy faollikning o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, tijorat banklari orqali real sektorni moliyalashtirish investitsiya jarayonlarining muhim manbalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Statistik ma'lumotlar tahlili bank sektorida kredit-investitsiya portfelining tarkibiy tuzilmasi izchil ravishda takomillashib borayotganini ko'rsatadi. So'nggi yillarda uzoq muddatli investitsion kreditlar ulushining ortishi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Bu holat bank sektorining investitsiya oqimlarini faqat qisqa muddatli daromad manbai sifatida emas, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi strategik vosita sifatida boshqarayotganini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, banklarning investitsiya siyosati va risklarni boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi investitsiya oqimlarining barqarorligini oshirmoqda. Kredit portfelining diversifikatsiya qilinishi, sohalar kesimida resurslarning oqilona taqsimlanishi hamda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining mustahkamlanishi bank sektorining investitsiya jarayonlaridagi ishonchiligi kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, risklarni yetarli darajada baholamaslik yoki moliyaviy resurslarning samarasiz yo'naltirilishi investitsiya oqimlari samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkinligi ham aniqlanadi.

O'rganilgan natijalar bank sektorida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi investitsiya oqimlarini boshqarish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Raqamli bank xizmatlari, avtomatlashtirilgan kredit tahlili va monitoring tizimlari investitsiya loyihalarini tezkor baholash hamda moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Natijada banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib, kapital aylanish tezligi ortmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bank sektorining investitsiya oqimlarini boshqarishdagi roli iqtisodiy o'sish, moliyaviy barqarorlik va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, banklarning investitsiya faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun institutsional muhitni takomillashtirish, risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish va investitsiya siyosatini uzoq muddatli strategik maqsadlarga moslashtirish zarurligi asoslanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari bank sektorining investitsiya oqimlarini boshqarishdagi o'rni milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Banklar moliyaviy vositachi sifatida jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltirish, real sektorni moliyalashtirish hamda investitsiya faolligini rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot jarayonida bank sektorining investitsiya siyosati, kredit-investitsiya portfelining tuzilmasi va risklarni boshqarish mexanizmlari investitsiya oqimlarining samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bank sektorida uzoq muddatli investitsion kreditlar ulushining oshishi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Shu bilan birga, investitsiya oqimlarini boshqarishda institutsional muhitni izchil takomillashtirish, risklarni baholash tizimlarini mustahkamlash hamda moliyaviy resurslarni tarmoqlar kesimida muvozanatli taqsimlash investitsiya jarayonlarining samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, bank sektorida investitsiya siyosatini uzoq muddatli strategik rivojlanish maqsadlariga moslashtirish va real sektor ehtiyojlarini inobatga olgan holda kredit-investitsiya faoliyatini kengaytirish zarur. Ikkinchidan, investitsiya loyihalarini baholash va monitoring qilish tizimlarini takomillashtirish hamda risklarni boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish bank investitsiyalarining barqarorligini oshiradi. Uchinchidan, raqamli bank texnologiyalarini rivojlantirish va moliyaviy innovatsiyalarni keng joriy etish investitsiya oqimlarini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Umuman olganda, bank sektorining investitsiya oqimlarini boshqarishdagi rolini mustahkamlash investitsiya muhitini yaxshilash, iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan tizimli islohotlar bank-moliya tizimining investitsion salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – 403 p.
2. Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
3. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – 12th ed. – Boston: Pearson Education, 2019. – 720 p.



4. Gorton, G., & Winton, A. Financial Intermediation // Handbook of the Economics of Finance. – Amsterdam: Elsevier, 2003. – Vol. 1. – pp. 431–552.
5. Levine, R. Finance and Growth: Theory and Evidence // Handbook of Economic Growth. – Amsterdam: Elsevier, 2005. – Vol. 1A. – pp. 865–934.
6. Rose, P. S., & Hudgins, S. C. Bank Management and Financial Services. – 9th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 784 p.
7. Fabozzi, F. J., Modigliani, F., & Ferri, M. G. Foundations of Financial Markets and Institutions. – 4th ed. – Boston: Pearson Education, 2010. – 640 p.
8. World Bank. Global Financial Development Report. – Washington, DC: World Bank Publications, 2021. – 180 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>